

## IX ASR MOVAROUNNAHR TAFSIRSHUNOSLIGIDA HADIS TO‘PLAMLARINING AHAMIYATI

Inoyatov Azizxo ja Xayrulloevich

“Jo ‘ybori Kalon” ayol-qizlar o‘rtasus islom ta’lim muassasasi direktori, (Phd)

*Annotatsiya: Ushbu maqolada IX asr Movarounnahr tafsirshunosligida hadis to‘plamlarining ahmiyati, bugungi kunga qadar dolzarb ahmiyatga egaligi, asarlarning mohiyatida yoritilgan mavzularning beqiyos ta’limiy va tarbiyaviy ahmiyatga ega ekanligi, ma’naviyat dunyosining boyligi va betakrorligi, inson ruhiy kamolotidagi o‘rnii haqida ilmiy tahlillar va nazariy asoslar orqali ma’lumotlar keltirilgan.*

*Tayanch iboralar: hadis, tafsir, oyat, sharh, manba, Qur’on, hadis, to‘plam, ilmiy meros, muhaddis, mufassir.*

## ЗНАЧЕНИЕ СБОРНИКОВ ХАДИСОВ В ТАФСИРЕ МАВЕРАННАХРА IX ВЕКА

Иноятов Азизходжа Хайруллоевич

«Jo Youri kalon» женский средний специальный директор исламского учебного заведения,  
(Phd)

*Аннотация: В данной статье представлены сведения о значении сборников хадисов в Мавераннахрской тафсироведении IX века, актуальные по сей день, о несравненной образовательной и просветительской значимости тем, освещаемых в сущности произведений, о богатстве и уникальности духовного мира, о его роли в духовном созревании человека посредством научного анализа и теоретических основ.*

*Базовые фразы: хадис, тафсир, аят, комментарий, источник, Коран, хадис, сборник, научное наследие, мухаддис, муфассир.*

## THE IMPORTANCE OF HADITH COLLECTIONS IN IX TH CENTURY MOVAROUNNAHR EXEGESIS

Inoyatov Azizhouja Khairulloevich

Female-Female Midget” spy Kalon” director of Islamic educational institution, (Phd)

*Annotation: this article presents information about the importance of Hadith collections in the IX th century Movarounnahr Tafsir, the relevance to this day, the incomparable educational and educational significance of the topics covered in the essence of the works, the richness and uniqueness of the world of spirituality, its role in human spiritual maturation through scientific analysis and theoretical foundations.*

*Base phrases: Hadith, tafsir, verse, Commentary, Source, Quran, Hadith, compilation, scientific heritage, muhaddis, mufassir.*

Imom Buxoriy yashagan jijriy III asrga kelib, ayniqsa, Xalifa Ma’mun hukmronligida islom ilmlarining birinchilardan bo‘lib rivojlanan boshlagan Qur’on va hadis ilmlari avj pallasiga ko‘tarilgan davr sanaladi. Movarounnahrga tafsir ilmining krib kelishi hadis ilmining rivoji bilan bevosita bog‘liq. Zero, Payg‘ambar (s.a.v.) va sahobiylarning Qur’onga sharhlari hadislar tarkibida jamlangan. Ma’lumki, xalifa Umar ibn Xattob buyrug‘iga ko‘ra arab sarkardalari Marv diyorigacha yetib kelganlar. Shu yerda 70 yil qolib ketganlar va o‘zları o‘rgangan ilmlardan hadislarni mahalliy xalqqa o‘rgatadilar. So‘ng Marv diyorida rivoyat qilingan hadislar Termiz, Balx, Samarcand va Buxoro kabi shaharlarda keng tarqalgan. Hijriy III asrlarda Movarounnahrning Samarcand shahrida hadis ilmi markazi, Buxoro shahrida esa fiqh ilmi markaziga aylana boshlangan. Tafsirga doir

IX asr islom olamining mashhur mufassirlardan Muhammad ibn Savr (vaf. 190/806), Vaki’ ibn Jarroh (vaf. 197/812), Abu Bakr Asam (vaf. 200/816), Ravh ibn Uboda (vaf. 205/820), Abu Bakr ibn Abu Shayba (vaf. 235/849), Is’hoq ibn Rohavayh (vaf. 238/853), Ahmad ibn Hanbal (vaf. 241/855), Duhaym (vaf. 245/859), Abd ibn Humayd (vaf. 249/863), YA’qub ibn Ibrohim Davraqiy (vaf. 252/866), Yusuf Qatton (vaf. 253/869), Abu Said A’shaj (vaf. 257/871), Sunayd ibn Dovud (vaf. 266/880), Ibn Mojja (vaf. 273/886), Baqi ibn Maxlad (vaf. 276/889), Abu Ali ibn Abdulvahhab Jubboiy (vaf. 303/916),

Riyoziy (vaf. 298/911), Abu Ja'far Tabariy (310/923), Abu Dovud Sijistoniy (vaf. 316/929) kabilarning hadis yo'lidagi zikr etilgan[1].

Abd ibn Humayd nomi bilan mashhur bo'lgan muhaddis Abu Muhammad Abdulhamid ibn Humayd ibn Nasr al-Kissiy (vaf. 249/863)dir. U haqda tarixiy manbalarda hayoti va ilmiy faoliyatiga doir ko'plab faktlar zikr qilingan. Abd ibn Humaydning "at-Tafsir", "al-Musnad al-kabir" va "as-Sulosiyot" kabi asarlari mashhur bo'lib, bu olim 55 dan ziyod ustoz-shayxlaridan hadis rivoyat qilgani ma'lum. Abd ibn Humaydning mashhur ustozlari Abdurazzoq ibn Humom as-San'oni va Yazid ibn Horundir.

Shuningdek, Abd ibn Humaydning Movarounnahr va Xurosandan chiqqan turli shaharlardagi shogirdlari ichidan eng mashhurlari Imom Muslim – rivoyat qilgan hadislari 372 ta va Imom Termiziy – undan rivoyat qilgan hadislari 180 ta, shuningdek, Imom Buxoriy ham Abd ibn Humayddan bir qancha hadislar rivoyat qilgani mashhurdir.

Movarounnahrdagi dastlabki muhaddislar qatoriga Abd ibn Humayd Keshiyni kiritish mumkin. Zero, Abd ibn Humaydning tafsirlari ham asosan hadislardan iborat bo'lgan tafsir kitobi bo'lganligi manbalarda zikr qilingan. Hadislar rivoyati asosida tafsirilmiga doir rivoyatlarning bu turi tafsir ilmida "naqliy tafsir" deb ataladi. Shu jihatdan tafsir ilmi va sohasida naqliy va aqliy tafsir ko'rinishlari keng tarqalgan bo'lib, ulamolar XII asrlargacha naqliy tafsir kengroq rivoj topganini alohida ta'kidlashadi. Tafsir turlaridan aqliy tafsir esa keyinroq rivojlana boshlangan.

Abd ibn Humaydning tafsir kitobi 2004-yilda Maxlaf Banih al-Urf tomonidan tadqiq qilinib, izlanishlari natijasida "Qit'atun min tafsir Ibn Humayd" ("Abd ibn Humayd tafsir kitobidan bir parcha") nomli bir jildli, 137 sahifali kitob arab diyorida mashhur "Dor Ibn Hazm" nashriyoti tomonidan chop etildi. Kitobni nashrga tayyorlagan tadqiqotchi Maxlaf Banih al-Urfning ta'kidlashicha, Madinayı munavvaraga ziyorat uyuşhtirgan chog'ida u yerdagi qo'lyozmalarning nusxalari orasida Ibn Abu Hotam tafsir kitobi hoshiyasidan olib, ushbu Abd ibn Humaydning tafsir kitobini o'rganib nashrga tayyorlagan ekan. Bu tafsir nusxasi boshqa bir kitobning hoshiyasida qayd etilgani bois tadqiqotchi olimlar e'tiboridan chetda qolib kelgan bo'lgan[2].

Yurtimizdag'i bu davr olimlaridan Ahmad ibn Hafs Abu Hafs Kabir A (vaf. 216/832) bo'lib, Movarounnahrdagi 2-hijriy asrdan hanafiy mazhabini tarqatgan. U Abu Hanifaning shogirdi Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniydan tahsil olgan. Buxoroda birinchilardan bo'lib hanafiy mazhabini tarqatib, ko'plab shogirdlar yetishtirgan. Lekin uning tafsir sohasidagi asarlari bizgacha yetib kelmagan. Ulardan keyingi davrda mufassirlar sifatida zikr etilgan Imom Dorimiy (798–869), Imom Buxoriy (810–870) va Hakim Termiziy (820–905)larning tafsir borasidagi faoliyati muhim ahamiyatga ega. Ularning ilmiy merosida tafsir asarlari zikr etilib, davrimizgacha yetib kelmagani aytildi. Bu allomalarining saqlanib qolgan asarlaridagi tafsirilmiga oid rivoyat va ma'lumotlarini tahlil etish ularning tafsirshunoslikda tutgan o'rnini ko'rsatib beradi.

Muhammad ibn Ismoil Aning "al-Jome' as-sahih" hadis to'plamida tafsiriga oid boblar keltirilib, ularda ba'zi bir suralarning sharhlari Muhammad (s.a.v.) dan rivoyat qilgan holda keltirilgan. Asarda "at-Tafsir" nomli alohida kitob (bob) keltirilgan, undagi boblar Qur'ondag'i suralar tartibiga binoan tartiblangan bo'lib, oyatlar sharhi yoritilgan hadislar berilgan. Unda Qur'ondag'i 400 ga yaqin oyatga sharh berilgan, shuningdek, hadislardan tashqari, sahobiy va tobiylarning Qur'onga sharhlari ham kiritilgan. Ba'zi suralarning sharhiga ko'proq, ba'zisiga kamroq hadislar berilgan. Hadislar orasida oyatning nozil bo'lish sabablari haqidagi rivoyatlar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

Imom Buxoriy faqat sahif rivoyatlarni jamlagani uchun asarida Qur'onning hamma oyatlariga ham sharhlar bermagan. Asarga sahobiy va tobiyl mufassirlardan Ibn Abbos, Anas ibn Molik, Oisha bint Abu Bakr, Abdulloh ibn Umar, Mujohid, Ikrima, Said ibn Jubayrlar tomonidan qilgan sharhlari kiritilgani e'tiborga molik. A mufassirlar singari sahobiy va tobiylarning so'zlaridan keltirganda rivoyat qiluvchilar silsilalarini zikr etmaydi. Ma'lumki, mufassirlar sahobiy va tobiylarning so'zlarini keltirganlarida har doim ham silsilani zikr etmaganlar, to'g'ridan-to'g'ri so'z egasiga murojaat etilgan holatlar ham uchraydi. A muhaddis sifatida Dorimiy va Abu Iso Termiziydan farqli ravishda oyatlarni sharhlashda sahobiy va tobiylarning so'zlaridan va o'z bilimidan ham foydalangani sababli uni Movarounnahr tafsirshunosligiga tamal toshini qo'ygan alloma deyish mumkin.

Hakim Termiziy ham mohir mufassirlardan sanalgan. Uning saqlanib qolgan asarlari orasida ba'zi bir oyatlarga berilgan sharhlarni ko'rish mumkin. Jumladan, uning "Tahsil nazoir al-Qur'on" asarida Qur'ondag'i "hidoyat", "kufr", "shirk", "hikmat", "islom", "imon", "shukr", "haq" kabi 80 ta so'zga sharh

berilgan. Unda Qur'on so'zlari ma'nolarini tasavvufiy sharhlashga e'tibor berilgan. Asarda Termiziy Qur'onda ko'p uchraydigan so'zlarning asosiy ma'nosidan va unga aloqador ma'nolarga ko'chishi mumkinligini zikr etadi. Muhammad Ibrohim Juyushiy o'z tadqiqotida Hakim Termiziyning tafsirdagi uslubi uch yo'nalishda namoyon bo'lishini zikr etgan:

1. Oyatlarni fahmlashda zohiriy yo'nalish bo'lib, bu barcha mufassirlarning tafsirdagi uslublari hisoblanadi.

2. Tasavvufiy yo'nalish, ya'ni Qur'onning zohiriy va botiniy ma'nolari bor hisoblovchi yo'nalish.

3. Arab harflaridan ishora olish. YA'ni, u Allohning ismi va sifatlari ilmining asli harflardir deb qarashi[3].

Ravh ibn Uboda ibn Alo Qaysiy Basriy ibn Hasson ibn Amr (vaf. 205/820) hadisda "saduq" (to'g'riso'z), imom darajasida baholangan hamda buyuk muhaddis va mufassir hisoblanadi. Ibn Avn, Hishom ibn Hasson, Ash'as ibn Abdulmalik Humroniy, Avf A'robiy, Husayn Muallim, Usoma ibn Zayd Madaniy, Ismoil ibn Muslim Abdiy, Ayman ibn Nabil, Zakariyyo ibn Is'hoq, Abbad ibn Is'hoq, Ibn Jurayj, Ubaydulloh ibn Ahnas, Ali ibn Suvayd ibn Manjuf va boshqalardan hadis rivoyat qilgan. Undan Ali, Ahmad, Is'hoq, Ibn Numayr, Bundor, Abd ibn Humayd va boshqa ko'plab kishilar hadis rivoyat qilganlar. Ravh hadis jamlash ishiga ham katta e'tibor berib, bu sohada boshqalarga nisbatan ilg'orlab ketgan edi. Buni Ali ibn Madiniyning "Ravh ibn Ubodaning yuz mingdan ortiq hadislarini ko'rib, ulardan o'n mingini yozib oldim", degan rivoyati ham tasdiqlaydi[4]. Ravhning sunanga oid kitoblar tasnif etgani va tafsirga oid rivoyatlarni jamlagani rivoyat qilinadi[5]. Tafsir manbalarida Ravhdan qilingan rivoyatlar mavjud. Masalan, Tabariy tafsirida ko'p o'rnlarda Ravhning rivoyatlarini ko'rish mumkin[6].

Abu Bakr Abdulloh ibn Muhammad ibn Abu Shayba Ibrohim (vaf. 235/849) Kufaning mashhur muhaddis, mufassir va tarixchisi bo'lgan. Muhaddislar orasida "al-Musannaf" asari bilan tanilgan muhaddis Kufa, Basra, Ray, Bag'dod va Hijoz o'lkasining madaniy markazlariga safar qilib, ilm o'rgandi. Abdulloh ibn Muborak, Vaki' ibn Jarroh, Sufyon ibn Uyayna, Yahyo ibn Qatton kabi muhaddislarning ilm darslarida ishtirok etgan[7]. Uning shogirdlari orasidan Imom Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Ibn Mojja, Ibn Sa'd, Abu Zur'a Roziy kabi buyuk muhaddislar yetishib chiqqan. Ibn Abu Shayba, Ahmad ibn Hanbal va Yahyo ibn Main uni "saduq", Abulhasan Ijliy va Abu Hotim Roziylar "siqa" sifatida zikr etganlar[8]. Bag'dodda uzoq yillar yashab, o'sha joyda vafot etgan. Ibn Abu Shaybaning tafsirga oid bir asari mavjud bo'lib, "Tafsir ibn Abu Shayba" nomi bilan Turkiyaning "Sulaymoniya" kutubxonasida saqlanadi[9]. Shuningdek, "al-Musnad" va "al-Musannaf" asarlari ham mavjud[10].

Is'hoq ibn Rohuvayh nomi bilan mashhur bo'lgan Abu YA'qub Is'hoq ibn Ibrohim ibn Maxlad ibn Ibrohim Hanzaliy Marvaziy 161/778 yilda Marvda tug'ilgan. Hadis hofizlaridan bo'lib, dastlabki ilmni Abdulloh ibn Muborak, Sufyon ibn Uyayna, Vaki' ibn Jarrohdan o'rgandi. Uning shogirdlari orasidan Baqiyya ibn Valid, Yahyo ibn Odam va boshqalar islam ilmlarida mashhurlikka erganlarlar. Ahmad ibn Hanbalning otasidan eshitgan rivoyatida, Is'hoqning Hanbal nazdida musulmonlar imomi ekan ta'kidlanadi. Ilm talabida Iroq, Hijoz, Yaman va Shom o'lkalariга safar qilib, umrining oxirini Naysoburda o'tkazdi. Uning tafsirga oid rivoyatlari ichida mutashobih oyatlar to'g'risidagilari ham mavjud bo'lib, ular ichida aqliy dalillarni ham uchratish mumkin. U fiqhga oid "Sunan", roviylariga ko'ra jamlangan "Musnad" hamda "Tafsir" asarlari ta'lif etgan bo'lib, ular bugungi kungacha yetib kelmagan. Ibn Rohuvayh 238/853 yilda vafot etgan.

Ahmad ibn Muhammad ibn Hanbal ibn Hilol asli marvlik bo'lgan. U 164/790 yilda tug'ilgan. Hadis bilan birga nahv, lug'at, tafsir, qiroat ilmlarida yetuk bo'lgan ibn Hanbal Hushaym, Sufyon ibn Uyayna, Ibrohim ibn Sa'd, Jarir ibn Abdulhamid, Yahyo Qatton va boshqa ustozlardan ta'lim olgan. Uning shogirdlari orasida Imom Buxoriy, Muslim, Abu Dovud va boshqa buyuk muhaddislarning mavjudligi hadislarni o'rganish va rivoyat qilishda erganlar yuksak maqomidan dalolat beradi. Uning asarlari orasida "Kitob at-tafsir", "an-Nosix val-mansux", "az-Zuhd" va "al-Musnad" kabi asarlari islam olamida ma'lum va mashhurdir. Ahmad ibn Hanbal 241/855 yilda vafot etgan.

Abu Said Abdurahmon ibn Ibrohim ibn Amr ibn Maymun Dimashqiy (vaf. 245/859) "Duhaym" nomi bilan mashhur bo'lgan. Qozi, imom, faqih, hofiz va Shom muhaddisi sifatida tanilgan. U Shom, Misr, Kufa, Basra va boshqa o'lkalarga safar qilib Sufyon ibn Uyayna, Marvon ibn Muoviya, Valid ibn Muslim, Suvayd ibn Abdulaziz, Is'hoq ibn Yusuf Azraq va boshqa muhaddislardan rivoyatlar eshitgan va ularni jamlab borgan. Duhaym hadislarni jamlash bilan cheklanmay, uning roviylarini jarh va ta'dildagi darajalari, hadisning sahih yoki illatli ekanini aniqlash yuzasidan tadqiqotlar olib borgan. Undan Imom Buxoriy, Abu Dovud, Nasoiy, Qazviniy, Abu Hotim, Abu Zur'a Roziy va boshqa mashhur muhaddislar

hadis rivoyat qilganlar.

Abu Muhammad Abd ibn Humayd ibn Nasr Keshiy (vaf. 249/863) hadis hofizlaridan bo‘lib, mufassir sifatida ham tanilgan. Abu Dovud, Muslim, Termiziyy va boshqa muhaddislardan hadis o‘rgangan Abdulhamid Movarounnahr o‘lkasining mashhur muhaddislardan biri sifatida tanilgan. Uning “Tafsir lil-Qur‘on al-karim” hamda “Musnad” asarlari to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud. Ba’zi tadqiqotchilar Abdulhamidning tafsiri “at-Tafsir bil-ma’sur”larning vujudga kelishidagi bиринчи bosqich, ya’ni hadis kitoblarida alohida bobga ajratilgan tafsir kitoblaridan biri hisoblanishini ta’kidlashadi. Ushbu bosqichda yozilgan tafsir kitoblari qatoriga yuqorida ko‘rib chiqilgan Vaki’, Ravh ibn Uboda, Odam ibn Iyos tafsirlari ham kiritilgan. Zahabiy uning asarlari qatoriga yuqoridagilardan tashqari “al-Muntaxab” asarini ham kiritган.

Abu Yusuf YA’qub ibn Ibrohim ibn Kasir ibn Yazid ibn Aflah Davraqiy Bag‘dodiy (vaf. 252/866) ham muhaddis va mufassirlar qatorida zikr etiladi. Ibn Aliya, Yazid ibn Horun, Ravh ibn Uboda va boshqa muhaddis va mufassirlardan ta’lim olgan YA’qub Maholimiyy, Qosim Matraz, Ibn So‘a va boshqa mufassirlarga ustozlik qilgan. Muhaddislар nazdida “siqa”, “aimma al-hadis”, “soduq” va “hujja” darajasida bo‘lgan mufassir “Tafsir”, “Musnad” asarlarini yozgan. Undan “kutubi sitta” mualliflari, Abu Zur‘a, Abu Hotim, Ibn Abu Dunyo kabi mashhur muhaddislар hadis rivoyat qilganlar.

Abu YA’qub Yusuf ibn Muso ibn Roshid ibn Bilol Ko‘fiy Qatton (vaf. 253/869) Ray shahrida tug‘ilib, voyaga yetgach Bag‘dodga ko‘chib o‘tadi va o‘sha yerda vafot etadi. Hadis va tafsir ilmi bilan shug‘ullangan. Ahmad ibn Abdulloh Yunus, Hammod ibn Salama, Sufyon ibn Uyayna, Sulaymon ibn Hayyon Ahmar, Abu Nuaym ibn Dukayn, Abu Muoviya Darir, Abdurahmon ibn Muhammad Muhoribiy, Amr ibn Xolid Osho, Mihron ibn Abu Umar, Abu Valid Tayolisiy, Vaki’, Ubaydulloh ibn Muso, Muhammad ibn Ubayd va Ibrohim ibn Rustamdan hadislarni eshitib, rivoyat qilgan. Undan Imom Buxoriy, Abu Dovud, Termiziyy, Ibn Mojja, Ibrohim Harbiy, Qosim Matraz, Nasoiy va boshqa muhaddislар hadis rivoyat qilganlar. Yusuf islam ilmlarining barcha sohalarida, xususan, hadis va tafsirda shuhrat qozongan bo‘lib, uning asarlari orasida tafsirga oidlari ham mavjud.

Abu Said Abdulloh ibn Said ibn Husayn A’shaj Kindiy Kufiy (vaf. 257/871) Kufaning mashhur muhaddis va mufassirlari orasida zikr etiladi. Hushaym ibn Bashir, Abdulloh ibn Idris, Abu Bakr ibn Ayyosh, Muhammad ibn Fuzayl kabi muhaddislardan ta’lim olgan. Manbalarda Abu Zur‘a Roziy, Abu Bakr Roziy va boshqalar uning shogirdlari sifatida keltiriladi. Zahabiy uning bir qancha asarlar muallifi ekanini ta’kidlar ekan, A’shajning bir jildli tafsirini ko‘rganini aytadi. Manbalarda kuchli xotira egasi bo‘lgan ishonchli muhaddis sifatida zikr etiladi. Yahyo ibn Main uning ba’zi zaif roviylardan hadis rivoyat qilganini ta’kidlaydi. Imom Buxoriy “al-Jome’ as-sahih” hamda “al-Adab al-mufrad” kitoblarida undan rivoyat keltiradi. Imom Muslim esa, “Sahih”da undan 70 ta hadis rivoyat qiladi.

Abu Ali Hasan ibn Dovud (vaf. 266/880) Sag‘r muhaddislardan hisoblanadi. Laqabi Sunayd Mismisiy bo‘lib, “at-Tafsir al-kabir” asarini yozgan. Hammod ibn Zayd Ja’far ibn Sulaymon Zab’iy, Abu Bakr Iyosh, Abdulloh ibn Muborak, Iso ibn Yunus va boshqa muhaddislardan hadis eshitgan. Undan Abu Bakr Asram, Abu Zur‘a Roziy, Ahmad ibn Zahir, Abdulkarim Dir Oquliy va boshqa mufassirlar rivoyat qilganlar. Muhaddislар nazdida “soduq”, “laysa bi siqa” darajasida turgan.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid Rabiy’ Qazviniy (vaf. 273/886) 209/825 yilda Qazvinda tug‘ilib. Ibn Mojja nomi bilan tanilgan. Muhammad Tanofisiy, Abdulloh ibn Muoviya va boshqalardan tafsirga oid rivoyatlarni eshitgan. Shogirdlari orasidan Muhammad ibn Iso Abhariy, Abu Amr Ahmad ibn Muhammad ibn Hakim Madiniy mashhur. Uning asari tafsir ilmlari rivojining uchinchi bosqichi, ya’ni tafsirning hadis to‘plamlaridan ajratilib, alohida kitob shakliga keltirilish va Qur‘onning barcha oyatlari sharhlangan asarlar toifasiga kiritilgan. Zahabiy ushbu ro‘yxatga Ibn Mojjadan tashqari, Ibn Jarir Tabariy, Abu Bakr ibn Munzir Naysoburiy, Ibn Abu Hotim, Ibn Hibbon, Hokim, Abu Bakr Marduvayh va boshqalarni zikr etadi. Uning “as-Sunan”, “at-Tafsir” va “at-Tarix” asarlari mashhurdir.

Abu Abdurahmon Baqi ibn Maxlad ibn Yazid Andalusiy Qurtubiy (vaf. 276/889 y.) mufassirlar orasida mashhur kishilardan hisoblanadi. Abu Mus’ab Zuhriy, Abu Bakr ibn Abu Shayba, Ahmad ibn Hanbaldan ilm o‘rgangan Baqining shogirdlari orasidan o‘g‘li Ahmad, Asam ibn Abdulaziz, Ahmad bin Xolid ibn Yazid va boshqalar mashhur bo‘lganlar. Ibn Hazm Zohiriy islam olamida Baqining “Tafsir”i juda mashhur ekanini ta’kidlaydi. Zahabiy uning mujtahid darajasiga yetgani hamda hadislarga asoslanib hukm chiqarishi, biror kishiga taqlid qilmasligini ta’kidlaydi. Manbalarda uning Andalusga hadislarni olib kirgan va yoygan kishi bo‘lgani va buning natijasida mahalliy ulamolarning qarshiligidagi

uchrashi, natijada uning bid'atchilik va zindiqlikda ayblangani to‘g‘risida ham ma’lumotlar mavjud. Uning fiqh mavzulariga muvofiq boblangan “al-Musnad”ini ta’lif etgani hamda Ibn Hazm ushbu asarni Ahmad ibn Hanbalning “Musnad”idan yuqori darajaga qo‘ygani haqida rivoyatlar mavjud.

Yuqoridagilardankelibchiqibaytish mumkinki, IX asrda tafsir ilmi boshqamusulmon mamlakatlaridagi kabi Movarounnahrda ham asosan rivoyatga asoslangan tarzda bo‘lib, uning hadis tarkibidan alohida ajralib chiqib, mustaqil ilmga aylanishining boshlanish davri bo‘lgan. Bu davrda Imom Buxoriyning boshqa muhaddislardan farqli ravishda sahobiy va tobiylarning sharhlarini keltirishi uning o‘ziga xos xususiyatini ko‘rsatadi. Imom Buxoriy yashagan mazkur davrda tafsir alohida ilm sohasi sifatida emas, balki hadis ilmi tarkibida rivoj topdi. Bu davrda yashagan olimlarning yozgan asarlari ichida tafsir ilmiga alohida bob ajratgan holda, yoki sahobiy, tobeiy va taba‘a tobeiylarning rivoyat qilgan hadislari tarkibida ular tomonidan rivoyat qilingan tafsirga oidlarini sanab o‘tganlar.

Imom Buxoriyga zamondosh bo‘lgan muhaddislар tomonidan alohida jamlangan tafsir kitoblari haqida ma’lumotlar ko‘p bo‘lsa-da, ularning aksariyati bugungi kungacha yetib kelmagan. Ushbu davr tafsir ilmi rivojida mu’taziliya vakillarining tafsir va boshqa aqidaviy masalalarga oid qarashlari va faoliyati natijasida naqliy tafsir bilan birga aqliy tafsir ham rivojlandi. Mufassirlar oyatlar tafsirida mavjud rivoyatlarni keltirish bilan chekshanishmay, ularni sharhlar, turli firqalarning aqidasiga raddiya berish maqsadida aqliy dalillardan ham foydalanishar edi.

Abu Bakr Asam (vaf. 201/817) Basra mu’taziliylarining tafsir, kalom va fiqh bo‘yicha yetuk olimlaridan hisoblanadi. Abulhuzayl Allof, Nazzom, Bishr ibn Mu’tamir va Muammar ibn Abbod Sulamiy bilan birga oltinchi tabaqa roviylaridan hisoblanadi. Faqirona hayot kechirgan. Manbalarda uning “Tafsir va kitob xalq al-Qur‘on”, “Kitob al-hujja va ar-rusul”, “Kitob al-harakot”, “ar-Raddu ‘ala al-mulhida”, “ar-Raddu ‘ala al-majus va asmo al-husna”, “Iftiroq al-umma va ashyo ‘idda” kabi 27 ta asar ta’lif etgani to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, ular orasida faqat bittasi, ya’ni “Tafsir al-Qur‘on” asari bugungi kunga qadar yetib kelgan. Uning Qur‘on tafsiriga oid o‘ziga xos qarashlari Jubboiy, Moturidiy va Roziy kabi olimlar tarafidan ko‘p o‘rinlarda naql etilgan. Unga ko‘ra, ma’nosи biror dalilga muhtoj bo‘lmagan va biror e’tirozga sabab bo‘lmagan oyatlar muhkam, ma’nosи aql yuritish vositasida anglanadigan oyatlar esa, mutashobih deb ataladi.

Shuningdek, Abu Bakr Asamning Qur‘onning jism ekani, imon va amalning birligi, gunohi kabira qilgan kishi ushbu ishni sir tutar ekan, imondan chiqmasligi, mo‘min kishiga gunohi sababidan munofiq yoki kofir sifati berilmaysdan, fosiq deb atalishi kabi g‘oyalari mavjud. Tafsir manbalarida uning ko‘plab qarashlari keltirilganini ham ko‘rish mumkin. Jumladan, Imom Moturidiy “Ta’vilotu ahl-as-sunna”da ko‘p o‘rinlarda mu’taziliylarning qarashlarini bayon etish va ularga raddiya berish maqsadida uning qarashlaridan iqtibos keltirgan. Faxriddin Roziy ham “Mafotih al-g‘ayb”da ko‘p o‘rinlarda undan oyatlarni aqliy tafsiriga oid rivoyatlarni keltirgan.

Movarounnahrda tafsirshunoslik ilmi rivoji o‘ziga xos tarzda shakllangan bo‘lsa-ad, muhaddislarning hadis to‘plamlarini shakllantirishga oid ilmiy ijodlari bilan chambarchas bog‘ligi ta’kidlab o‘tildi. Imom Buxoriy davrida ilmiy muhit shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda Qur‘on sharhi boyitib borish takomillashish davriga to‘g‘ri kelgan. Ilk davrlarda tafsir ilm hadis ilmining ajralmas qismi sifatida hadis to‘plamlarida zikr etilgan bo‘lsa-da, ajdoddan-avlodga yetkazish orqali X asrdan so‘ng Qur‘on ma’nolarini mustaqil tafsir fani sifatida alohida fan doirasida asarlар yozish boshlangan. XI–XII srلarga kelib esa Qur‘oni karimni sharhlashda naql bilan birga ra‘y-ijtihodning roli katta bo‘lgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zarkashiy. Burhon fi ulumil-Qur‘on. 4 jildli. – Qohira: Maktaba Dorut turos, 2002;
2. Suyutiy. Itqon fi ulumil-Qur‘on. 2 jildli. – Qohira: Dorul hadis, 2004. – B. 25-35.
3. Maxsudov D. Movarounnahr hanafiy mazhabi tafsirlarining qiyosiy tahlili (XIII-XV asrlar). Tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: O‘zXIA, 2020. – B. 145.;
4. Valid ibn Ahmad Husayn Zubayriy va boshqalar. Al-Mavsua al-muyassara fiy tarojum aimma at-tafsir va al-iqro va an-nahviva al-lug‘a min al-qarn al-avval ila al-muosiriyn ma‘a dirosa li-aqoidihim va shay‘un min taroifihim. Britaniya: Majalla al-hikma, 2003. – J. 3. – B. 2975-2976.
5. Valid ibn Ahmad Husayn Zubayriy va boshqalar. Al-Mavsua al-muyassara fiy tarojum aimma at-tafsir va al-iqro va an-nahviva al-lug‘a min al-qarn al-avval ila al-muosiriyn ma‘a dirosa li-aqoidihim va shay‘un min taroifihim. Britaniya: Majalla al-hikma, 2003. – J. 3. – B. 2207.